

НАМАНГАН ВИЛОЯТИ

Попнинг полвон фермери

Одатда, "полвон" сўзи даврада бел олишиб, курашган йигитга нисбатан айтилади. Баъзан эса эр йигитнинг амалга ошираётган ишлари, эл орасидаги нуфузига қараб ҳам полвон, дейишади. Биз қаламга олаётган тадбиркор-фермер Улуғбек Ғаниевни бугун нафақат Попда, балки вилоятнинг барча туманларида яхши билишади.



Суратда: фермер Улуғбек ҒАНИЕВ

У Наманган муҳандислик технология олийгоҳининг қурилиш факультетини тамомлаб, 2002 йили менежмент мутахассислиги бўйича диплом олди, уйланди. Олий маълумотли Шоирахон билан Барнохон, Донахон, Дунёбек, Мехрибон исмли фарзандларнинг бахтли ота-онасига айланди. Мамлакатдаги ишбилармонликка очилган кенг йул, берилган имтиёзлар ёш оила соҳибларининг ҳам юрагига чўғ ташлади. Уз сармояларини чамалаб кўриб, кўшимчасига банкдан имтиёзли кредит олди. Попда биринчилардан бўлиб икки қаватли, 150 уринга эга кўп тармоқли хусусий шифохонани барпо этди. Унга "Сино шифо нур" деб ном берди. Ун икки йилдан буён неврология, терапия, лор йўналишида фаолият олиб бораётган, клиник лаборатория, физиотерапия, УЗИ хизматларини кўрсатиб келаётган тиббий муассасани бугунга келиб янада кенгайтириш зарурати сези-

либ қолди. Тадбиркор томонидан замонавий меъморчилик кўринишида яна тўрт қаватли йўлдош бино барпо этилди. 3,4-қаватлари шифохона тасарруфига берилди. 1,2-қаватида дорихона, савдо, маиший хизмат кўрсатиш шаҳобчалари жойлашди. Октябрь ойида фойдаланишга топширилган бу муассасада яратилган ишчи ўринларининг жами сони 50 тани ташкил этадиган бўлди. "Иш билганга минг танга" нақли бежиз тез-тез тилга олинмайди. Улуғбекнинг ҳар бир дақиқаси ҳисобли, унинг учун режа, лафз, ижро ҳар нарсадан устун туради. Ешлиги қишлоқда, далалар бағрида ўтмангани, ерни, унга меҳр кўрсатишни, сувсиз ҳудудларда экинзор, боғлар яратишни орзу қилиб юради. Ана шу нияти 2017 йилда ушалди. Акиси Пахлавон билан бамааслахат 15 йилдан буён 20 центнерлик режани ҳам қопламай келаётган, суви муаммо бўлган, ғиж-ғиж тошлоқдан иборат

100 гектарлик майдоннинг тендериде қатнашиб, ғолиб бўлди. "Барно, Доно, Дунёбек" фермер хўжалигига асос солди. Кечаю-кундуз чекилган заҳматлар секин-аста ўз самарасини кўрсатди. Юқори ташкилотларга қилинган мурожаат қондирилиб, 640 миллион сўмга сув насоси ўрнатилди. Натижада, ҳудуддаги 3 та маҳал-

ла, 4 та фермер хўжалиқларининг сув муаммоси ҳал этилди. Пахта, ғалладан сўнг то қишгача зангиб ётадиган майдонларга яшиллик улашилди. Минг-минг тонналаб ризқ-насиба яратадиган заминга айлантирилди. 2021 йилда 46,4 гектардаги "Алексейевич" навли бугдойдан 60 центнердан ошириб хирмон кўтарил-

ди. 10 гектар ердаги "Андижон-35" навли пахтадан биринчи термининг ўзида 32 центнердан ҳосил йиғиштириб олинди. Аини пайтда фермер хўжалиги аъзолари 42 центнерлик маррани кўзлаб, астойдил меҳнат қилишмоқда.

Равшанбек МИРЗОЛИМОВ,
"Qishloq hayoti" мухбири.



САЙЛОВ УЧАСТКАСИДА САЙЛОВ ЖАРАЁНЛАРИ ОНЛАЙН ВИДЕО-ТРАНСЛЯЦИЯ ҚИЛИНАДИ

Сайлов жараёнида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш очиқлик ва ошкораликни таъминлайди, шунингдек, сайловчилар учун ҳар томонлама қулайликлар яратиб беради. Шу боис, бир қатор давлатлар сайлов жараёнида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиб келмоқда.

Айрим сайлов участкаларида сайлов жараёни видео-трансляция қилиш бўйича қўшимча чора-тадбирларни белгилаш тўғрисидаги масала Марказий сайлов комиссиясининг навбатдаги мажлиси кун тартибидан ўрин олди.

– Маълумки, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва маҳаллий Кенгашларга 2019 йили ўтган сайловларда синов тариқасида 60 та сайлов участкасида 120 та кузатув видеокамераси ўрнатилган эди. Мазкур сайлов участкаларидаги овоз бериш жараёни Марказий сайлов комиссиясининг расмий веб-сайтида, Халқаро матбуот марказида ва "Ўзбекистон 24" телеканалда реал вақтда намойиш этилгани яхши самара берганди. Жорий йилда ушбу йўналишдаги ишлар янада такомиллаштирилиши ва қўлама кенгайтирилиши зарур. Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюросининг Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови бўйича миссияси томонидан жорий йилнинг 15 сентябридан 5 октябрга қадар бўлган даврдаги кузатувларининг оралик ҳисоботида бу борада амалга оширилаётган ишларга иқобий баҳо берилди. Ҳисоботда Марказий сайлов комиссияси томонидан барча сайлов комиссияларининг геолокацион маълумотларини ўз ичига олган интерфасл мобил илованинг ишлаб чиқилгани, сайлов комиссиялари аъзоларининг каскад усулида ўқитилиши ва сайлов куни "COVID-19"нинг олдини олиш бўйича қабул қилинган чоралар алоҳида қайд этилди, – деди МСК раиси Зайниддин Низомхўжаев.

Қайд этилганидек, овоз бериш куни мамлакатимиз ҳудудиде жойлашган 207 та сайлов участкасида сайлов жараёни онлайн видео-трансляция қилинади. Видео-трансляция жараёни Марказий сайлов комиссиясининг матбуот марказидаги катта ҳажмдаги экран орқали, шунингдек, "saylov2021.uz" портали ҳамда Ўзбекистон Миллий телерадиокомпаниясининг "Ўзбекистон 24" ва бошқа телеканалларида онлайн тарзда узатиб борилади. Трансляция вақти 24 октябрь куни соат 8.00 дан 20.00 гача белгиланган. Бугунги кунда хорижий тажриба ва мавжуд имкониятлардан келиб чиқиб, жорий йилнинг 24 октябрь куни бўлиб ўтадиган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловида ҳар бир туман ва шаҳардаги 1 тадан намунавий сайлов участкасида 2 тадан камера ва зарурий қурилмаларни ўрнатиш бўйича тегишли чора тадбирлар амалга оширилмоқда. Рақамлар билан айтадиган бўлсак, 207 та туман ва шаҳарда жами 414 та кузатув камераси ўрнатилиши белгиланган.

Бугунги кунда кузатув камераларини ўрнатиш ва онлайн эфирга узатиш бўйича барча ҳаражатлар "Хавфсиз шаҳар" жамоат тартибига кўмаклашиш маркази мутахассислари билан биргаликда ҳисоб-китоб қилинган ва тегишли шартнома имзоланган.

Нурилло НАСРИЕВ,
ЎЗА мухбири.



Тажриба ва натижа

Томчилатиб суғоринг, ТОННАЛАБ ҲОСИЛ ОЛИНГ!

АНДИЖОН ВИЛОЯТИ

Инсон табиатида бир қусур борки, ҳар қандай янгиликни бирдан қабул қилмайди. Жумладан, деҳқончиликда сувдан тежамли ва самарали фойдаланиш билан боғлиқ кўплаб илғор технологиялар мавжудки, уларни қишлоқ хўжалигида тадбиқ этишда фикрлар хилма-хиллиги бор...

Янги Ўзбекистонни барпо этиш бош мақсад қилиб олинганидан сўнг қишлоқ хўжалигида сув тежовчи янгиликларни тадбиқ этишга қаратилган давлат дастури ишлаб чиқилди. Дастур ижроси давомида уни жорий этаётган фермерларга бир қатор имтиёзлар берилмоқдаки, бунинг ҳисоб-китобини кўз олдида келтираётган фермерлар янгиликни тезроқ жорий этиш ҳаракатида бўлишмоқда. Жалақудук тумани "Пахтакор" массивидаги "Мусаффо тонг жилоси" фермер хўжалигида бўлганимизда далалардан бири кўзимизга ярақлаб кўринди. Бамисоли кўсақлар шохларга маржондек терилган даражада эди. Йигим-терим якунланаётган аини дамда яна бир бор

мазкур фермер хўжалигига бордик. Хўжалик раҳбари Достонбек Аҳмедовнинг кайфияти баланд. 27,8 гектар гўза майдони бўлиб, шундан 10 гектариде томчилатиб суғориш технологияси жорий этилган. 13 октябрь ҳолатига хўжалиқда 111 тонна пахта ҳосили тайёрланган бўлиб, шундан 49 тоннаси янгилик жорий этилган далада етиштирилган. Аниқроқ қилиб айтсак, ҳосилдорлик 49 центнерни ташкил этмоқда. Анъанавий усулда парвариш қилинган далада эса ҳосилдорлик 39,1 центнерни ташкил этаётди. Уртадаги фарқ гектарига 10 центнер бўлиб, ҳосил сифатининг юқорилиги боис тоннаси 7 миллион 30 миң сўмдан сотилмоқда.

(Давоми 3-саҳифада)

"Меҳрибонлик" болалари учун байрамга айланган кун

Юракдан-юракка

2



Тошкент шаҳри Яшнабод туманидаги 30-сон "Меҳрибонлик" болалар уйида вояга етаётган 105 нафар боланинг энг кичиги энди 7 ёшга кирган, катталари ҳадемай 17 ёшга киради...

Мурғаклигиданоқ ҳамма каби бўлолмаслик, ҳамма каби яшолмаслик тақдирига битилган бир юз бешта дилпора юрак. Улар – жисмоний имконияти чекланган болалар, лекин бошқа жиҳатларига кўра, бошқа тенгдошларидан кам фарқ қиладилар, яъни улар ҳам меҳрга, эътиборга чанқоқ, ҳаётларида байрам ва хурсандчиликлар кўп бўлишини истайдилар. Энг муҳими, улар ҳатто арзимас ғамхўрликни ҳам қалбан чуккур ҳис этадилар, хурсандчилик онларида бутун борлиги билан қувонадилар ва бу онларни хотираларида узоқ сақлайдилар...

Қишлоқ хўжалиги – Ўзбекистонни иқтисодий юксалтиришнинг бош нуқтаси

Иқтисодий юксалиш, аҳоли турмуш тарзини яхшилаш, камбағалликни қисқартириш бугун Янги Ўзбекистон олдида турган энг муҳим вазифалардан бирига. Аммо бу жараён барча давлатлардаги каби осон бўлмагани ҳолда, иқтисодий муаммолар доим янгилашиб ва тобора мурракблашиб бораверади. Ана шу муаммоларнинг сон-саносиз ечимлари орасидан энг оқилона, тўғри, юқори самарадорликка эга ечимини топишнинг уйдасидан чиққан мамалакатларгина юксалиш, ривожланишга эришади.

Ўзбекистон сўнгги йилларда барча соҳаларда туб ислохотларни амалга ошириб, янги ва замонавий усулларни жорий этиш ҳисобига иқтисодий ривожланиш йўлида жадал одимламоқда. Бу борада камчилик, муаммолар ҳам йўқ эмас. Уларнинг ечимини излаб топиш эса бугунги ривожланган даврда мутахассислар олдида янада долзарб вазифаларни қўяди. Мамлакатни иқтисодий ва унинг ҳосиласи сифатида ижтимоий юксалтириш муаммосининг ҳал этилиши, авваламбор, иқтисодий соҳада ижод қилаётган иқтисодчи олимларнинг маҳоратига, иқтисодий ривожланиш муаммоларининг кенг осмониде унинг бош нуқталарини топа билиш қобилиятига боғлиқ.

3



Дунё бўйича суғурта мукофотлари ҳажми 7 триллион долларлик рекорд кўрсаткичга етиши башорат қилинмоқда

Суғурта хизматлари иқтисодий турли хил молиявий хатарлардан ҳимоя қилувчи воситалардан бири бўлиб, ривожланган мамлакатлар ялпи ички маҳсулотига ушбу соҳанинг улуши 10-15 ва ҳаттоки 20 фоизни ташкил этади. Швейцариянинг Swiss Re институти 2022 йил охирига келиб, дунё бўйича суғурта мукофотлари ҳажми 7 триллион долларлик рекорд кўрсаткич қайд этилишини башорат қилмоқда. Мазкур институт ҳисоботига кўра, 2022 йилда суғурта мукофотлари 3,9 фоизга ошиши тахмин қилинмоқда. Жорий йилда асосий бозорларда мукофот ўсиши Хитойда 6,3, АҚШда 1,7, Ғарбий Европада 2,8 ва ривожланаётган бозорлар учун 5,6 фоиз бўлиши кутилмоқда. Коронавирус пандемияси мазкур ўсишнинг муҳим омил сифатида кўрсатилмоқда. Бунда тиббий суғурта бўладими ёки корхоналар учун таъминот занжиридagi узиллишларми, одамлар суғурта нима эканлигини ва инқироздан чиқишга ёрдам беришини англаб етишмоқда.



UZINSURANCE: СУГУРТА БОЗОРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР У НИМАЛАРДА КЎРИНАДИ?

Дунёда суғурта мукофотлари бўйича АҚШ, Хитой ва Япония 2020 йилда яна энг йirik суғурта бозорлари учлигига киритилган. Жаҳон бозоридида жами суғурта мукофотлари 2,5 триллион АҚШ доллари бўлиб, ушбу давлатларнинг улуши қарийб 58 фоизни ташкил қилади. Ривожланган мамлакатларда суғурта хизматлари истеъмол саватчасидаги маҳсулотлардан бири ҳисобланади. Аҳолининг 80-90 фоизи уй-жойи, мол-мулки ва ҳаётини албатта суғурта қилдиради. Бу биринчи навбатда одамларнинг ўзлари учун фойдали бўлса, иккинчидан иқтисодийнинг мустаҳкам бўлишига ҳам олиб келади. Айни пайтда мамлакатимиз суғурта бозорини ривожлантириш мақсадида кўрилатган чоралар ҳам айнан ҳаётимизда суғуртанинг ўрнини мустаҳкамлаш, иқтисодий ётимизнинг ажралмас таркибий ётисига айлантириш каби мақсадларни кўзда тутаяди. Маълумки, ҳар қандай соҳанинг ривожини унинг ҳуқуқий базаси мустаҳкамлигига боғлиқ. Бу борада кейинги йилларда айнан суғурта бозорини ривожлантириш мақсадида қабул қилинган Президент қарор ва фармонларини алоҳида қайд этиб ўтиш жоиз. Хусусан, 2019 йилнинг 2 августидида қабул қилин-

ган "Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарор соҳадаги ўзгаришларга туртки бўлган муҳим ҳужжат бўлди. Мазкур қарорда суғурта соҳасида норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш, шу жумладан, халқаро ташкилотларнинг стандартлари ва тавсияларини ҳамда ушбу соҳадаги энг яхши жаҳон тажрибаларини изчил жорий этиш, суғурта бозори профессионал иштирокчиларининг капиталлашув даражасини, тўлов қобилияти ва молиявий барқарорлигини ошириш, уларнинг активлари сифатини яхшилаш, шунингдек, суғурталовчиларнинг инвестиция фаолиятини ривожлантириш, суғурта хизматлари истеъмолчилари ва суғурта фаолиятининг бошқа субъектлари ҳуқуқлари ҳимоясини кучайтириш, аҳолининг суғурта саводхонлигини ва суғуртага бўлган ишончини ошириш, суғурта бозорининг очкилиги ва шаффофлигини таъминлаш каби соҳани тубдан такомиллаштиришга қаратилган муҳим вазифалар ўрин олган. Шу билан бирга янги инновацион суғурта маҳсулотларини жорий этиш ва талаб юқори бўлган анъанавий маҳсулотларни ривожлантириш орқали кўрсатилмаётган суғурта хизматлари

ҳажмларини, турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш, суғурта фаолиятини ташкил этиш ва тартибга солиш соҳасида замонавий ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш, суғурта хизматларининг электрон турларини фаол жорий этиш ва ривожлантиришга қаратилган чоралар бугун мамлакатимиз суғурта бозоридидаги вазиятнинг ўзгаришига олиб келди. "UZINSURANCE" яъни, "Ўзгросуғурта" АЖда ҳам ушбу қарорда белгиланган вазифалар ижросига эътибор қаратилган бўлиб, унинг бандлигида назарда тутилган чора-тадбирларнинг амалдаги ижроси таъминланди. Президентимизнинг 2020 йил 27 октябрдаги "Давлат иштирокидаги корхоналарни ислоҳ қилиш-ни жадаллаштириш ҳамда давлат активларини хусусийлаштиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида"ги фармони асосида компаниямизда трансформация жараёни амалга оширилмоқда. Трансформация доирасида "Ўзгросуғурта" акциядорлик жамиятининг суғурта бозоридидаги мавқеини ошириш, хусусан молиявий соғломлаштириш, операцион самарадорлиқни янада яхшилаш мақсадида 2021-2023 йиллар учун ривожланиш стратегияси ишлаб чиқилди.

Компанияда ребрендинг ўтказилиб, халқаро суғурта бозоридида ишончли ва барқарор имижини шакллантириш учун янги ном ва логотип танлаб олинди. Айни пайтда компания "UZINSURANCE" – товар ва хизмат кўрсатиш белгиси остида фаолият олиб бормоқда. Компания фаолиятини ислоҳ этишда асосий урғу "Ҳар бир миқоз муҳим, унинг манфаатлари устувор" тамойилига қаратилган бўлиб, истеъмолчилар манфаатини ҳимоя қилишда очкилик ва шаффофликни таъминлаш хизмат кўрсатишининг бош мезони қилиб белгиланган. Компанияни халқаро даражага олиб чиқиш, кўрсатилмаётган хизматлар географиясини кенгайтириш чоралари ҳам қўрилмоқда. Жумладан, "Ўзгросуғурта" АЖ молиявий хўжалик фаолияти "Делойт" (Deloitte) ва "Грант Торнтон" (Grant Thornton) каби дунёдаги етакчи аудиторлик компаниялари томонидан халқаро аудит стандартлари асосида текширувдан ўтказилди ва ижобий ҳулосалар олинди. Инвестициявий жозибадорлиқни ошириш, миқозлар ишончини оқлаш мақсадида кўрилатган чоралар туфайли компания мана учинчи йил кетма-кет "Фитч" (Fitch) халқаро рейтинг агентлигининг "BB-" барқарор рейтингига эга бўлди. Бундан

ташқари компания суғурта портфелини диверсификациялаш юзасидан дунёнинг етакчи қайта суғурта бозорлари жумладан, Lloyd's суғурта бозори (Лондон), АҚШ, Россия қайта суғурта компаниялари билан ҳамкорликда облигатор қайта суғурта дастурларини кўриб чиқиш ва мақбулларини танлаб олган ҳолда облигатор қайта суғурта хизматлари жорий қилинмоқда. "Ўзгросуғурта" АЖда очкилик ва шаффофликни таъминлаш, кўрсатилмаётган хизматлар сифатини замон талабларига мослаштириш мақсадида фаолиятга ахборот коммуникация технологиялари кенг жорий этилмоқда. Хусусан, онлайн кўрсатилмаётган умумий суғурта хизматлар қамровини оширишга мўлжалланган "Online Polis" ахборот тизими ишлаб чиқилди. Унда, 9 та ихтиёрий суғурта тури бўйича Е-полис сотиб олиш имконияти мавжуд. Шу билан бирга, ягона ахборот тизимини жорий қилиш бўйича "Uzagros Online" дастурий таъминот тизими ишлаб чиқилган. Бу орқали барча суғурта шартномаларини мониторинг қилиб таҳлил қилиш мумкин. Компания суғурта бозоридида етакчи мавқега эга бўлиб, 140 дан ортиқ суғурта турлари бўйича аҳолига хизмат кўрсатиб келмоқда. Сирасини айтганда, суғурта бозоридида етакчи мавқега эга бўлган компаниямиз жамоаси мамлакат иқтисодийётида суғурта хизмати улушини кўпайтириш, хизматлар сифати ва кўламини жаҳон стандартлари даражасига етказиш, аҳолининг суғуртавий саводхонлигини ошириш ҳамда соҳага бўлган ишончини мустаҳкамлаш йўлида бор имкониятларини ишга солимоқда. Шухрат ҚОБИЛОВ, "Ўзгросуғурта" АЖ Бошқаруви раисининг матбуот котиби.

Фермерлик ҳаракати

Кўп тармоқлилар сафи кенгаймоқда

Тошкент вилоятида жорий йилда 2 минг 777 та фермер хўжалигида кўп тармоқли фаолиятни йўлга қўйиш белгиланган бўлиб, улар томонидан 931 гектар майдонда интенсив боғ, 270 гектар майдонда янги тоқзор, 89 гектар майдонда иссиқхоналар барпо этилмоқда.

Шунингдек, 97 та мева-сабзавот, 21 та сут ва 17 та гўшт маҳсулотларини, 19 та нон ва нон маҳсулотлари ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, 72 та фермер хўжалигида совуқтичи омборхоналар, 7 та фермер хўжалигида қурилиш материалларини ишлаб чиқариш бўйича лойиҳаларни амалга ошириш режалаштирилган. Шу билан биргаликда, 340 та фермер хўжалигида қорамолчилик ва паррандачилик, 14 та фермер хўжалигида йилқичилик ва қўёнчилик, 1 089 та фермер хўжалигида балиқчилик ва асаларчилик, 166 тасида қўйчилик ва эчкичилик, 415 тасида сервис хизматларини қамраб оладиган лойиҳаларнинг амалга оширилиши мўлжалланган. Жорий йилнинг 15 сентябрь ҳолатига вилоят бўйича 2 минг 223 та фермер хўжалигида 21 та йўналиш бўйича кўп тармоқли фаолият ташкил этилган. Буларнинг натижасида қишлоқ жойларда 4 минг уч юзга яқин кишининг бандлиги таъминланди.

Муродулла ТУРДИЕВ, Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжалиқлари ва томорқа ер эгалари кенгаши бош мутахассиси.

"Меҳрибонлик" болалари учун байрамга айланган кун



(Боши 1-саҳифада)

Яхшиямки, мамлакатимизда бундай болалар учун мўлжалланган ўнлаб махсус муассасалар мавжуд бўлиб, уларнинг барчасида болаларнинг тарбияланиши, тўлақонли билим олиши, маънавий-жисмоний етуқ бўлиб вояга етиши учун шароитлар яратилган. Ҳа, балки улар бенуқсон эмасдирлар, ота-она меҳридан маҳрумдирлар (бу болаларнинг ота-оналари ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум этилган), лекин давлат миқёсидаги гамхўрлик ва эътибордан бебаҳра эмаслар, бундан ташқари, турли нодавлат ташкилотлари, ҳомий компаниялар, шунчаки яхши одамлар ҳам уларга меҳр-оқибат кўрсатадилар.

Яқинда "Enter Engineering" компанияси томонидан Ўзбекистон Республикаси ИИВ ЙХББ, Тошкент шаҳар ИИББ Хавфсиз туризмин таъминлаш бошқармаси, "Himo Arena" муз саройи маъмурияти билан ҳамкорликда мана шу масканнинг 28 нафар тарбияланувчиси учун маданий-кўнгилочар саёҳат ташкил этилди. Барча ташкилий масалалар режалаштирилган саёҳатни кўнгилли ўтказиш ва болалар хавфсизлигини таъминлашга қаратилди. Болалар мактабдаги дарслар туғагач, қулай автобусда юртимиздаги энг катта спорт-кўнгилочар мажмуаси – "Himo Arena" муз саройига йўл олдилар, у ерда махсус гид болаларга муз саройи ҳақида сўзлаб берди. Муз саройи бўйлаб қизқарли экскурсиядан кейин болалар учун энг қиймли машғулот бошланди – улар конькилар кийиб, муз устида уча бошладилар. Ярқираган муз устида сирпаниб учаётган болаларнинг завқ-шавққа тўлиб, қувониб-қулишларини кўриб, бу бахтли онлар уларнинг шу ҳаётни қийинлиқлар сифатида муҳрланишига амин бўлди. Олдидида эса уларни музда учидан ҳам эликзиқроқ машғулот, айнан эса, сивейлар ва электрокарлардаги сайр кутмоқда эди. Бу техникани кўриб уларнинг кўзларида болаларча қизиқувчанлик учқунлари порлаб кетди, айниқса, ўғил болаларда бу ажойиб транспортларнинг бошқарилиши ҳақида жуда кўп саволлар туғилди. Уларнинг ҳамма саволларига ЙХББ ва туристик полиция ходимлари эринмасдан жавоб бердилар.

Барча ёқимли саргузаштлардан кейин болалар ва уларнинг тарбиячилари "Диет-кафе"да тузалган кенчи таом дастурхонига тақлиф этилдилар.

Ёш меҳмонларимизни кузатишдан аввал уларнинг ҳар бирага компаниямиз ишчи-ҳодимлари номидан эсдлик совгалари тақдим этилди. Улар учун ташкилланган мароқли саргузаштлар, қўрсатилган гамхўрлик ва меҳр учун болалар ўз миннатдорчиликларини шўх-шодон кулгулари ва қувонч ила ийманиб айтилган "Катта раҳмат!", деган сўзлар билан ифода этишди.

Елена ҲАМИДОВА, "Enter Engineering" компанияси PR-хизмати бош мутахассиси.

Жараён

Ҳоким ташаббуси

махсус дафтарлардаги аҳолини иш билан таъминлаб, рўйхатдан чиқаришда муҳим омил бўлмоқда

Ҳеч кимга сир эмаски, маҳаллабай ишлаш тизими асосида фаолият юритиш барча бўғин раҳбарлари учун фуқаролик йиғинлари ҳудудлари имкониятларини яқиндан билиш, аҳолининг ижтимоий ҳолатини тубдан ўрганишда кутилган самарани бермоқда. Пискент тумани ҳокими Раҳимжон Рихсиевнинг бугун барчага маъқул келиб, алоҳида эътироф этилаётган ҳаётбахш ташаббуси ҳам баайни ҳудудларни пиёда юриб, синчиклаб ўрганиш жараёнида пайдо бўлди.



Ҳоким "Темир дафтар", "Аёллар дафтари" ҳамда "Ёшлар дафтари"га киритилган ижтимоий ҳимояга муҳтож фуқароларни иш билан таъминлаб, уларни бу рўйхатдан чиқариш ҳақида бош қотирар экан, бир тамойилни ўз фаолиятида устувор вазифага айлантириб олди. Бу "Муҳтожга балиқ берма, аксинча қармоқ бериб, балиқ тутишни ўргат" тамойили эди. Чунки изланиш, кузатиш ва тажрибалар шуни кўрсатдики, махсус дафтарлардаги фуқароларга берилаётган моддий ёрдам, озиқ-овқат маҳсулотлари вақтинчалик бўлиб, бу уларни тўла-тўқис муҳтожлиқдан чиқара олмайдди. Фуқаро шароит нуқтаи назаридан рўзгоридидаги моддий ҳолатини яхшилаш ниятида тақлиф этилаётган, аммо ўзи қизикмаётган касбда ҳам доимий ишлаб кетиши амримаҳол. Демак, бундай шароитда энг тўғри ечим бу рўйхатдагиларнинг хоҳиш-истак ва қизиқишларини ҳам ҳисобга олиб муаммони ҳал этишдир. Ҳоким ҳудудларни айланиб, имкониятларни ўрганаётган экан, бир нарсани алоҳида эътибор қаратди. Масалан, "Минг тепа" МФЙ аҳолиси

боғдорчиликнинг ҳадисини олган. "Янги обода" одамлари эртаги резаворлар етиштиришда моҳир, "Култупа" МФЙ аҳолиси томорқаларида эса картошка етиштириш яхши ривожланган. Ушбу фуқаролар йиғинлари ҳудудларидаги махсус дафтарга кириб қолганларни савҳосил узум навлари, элита картошка уруғлари, ишқомилари замонавий темир сўрилар билан алмаштириш учун кредитлар билан таъминлаб ўзларини ўзларига банд қилдириш мумкин. Аммо туман марказига туташ бўлган Ғайрат маҳалласи...

Ушбу ҳудуд ишсиз аҳолисининг кўплиги ва махсус дафтарларга кирганлар салмоғи бўйича бошқаларидан бирмунча ажралиб турарди. Яширадиган жиҳати йўқ, худуд сўнги йилларда ҳар жиҳатдан эътибордан четда қолгани, йўллари абгор ҳолга келган, ободончилик ишлари ачинарли аҳволда эди. Шу боис бу МФЙ бўйича алоҳида чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилди. Натижанда, йўллар асфальтланди, маҳалла гузарлари қисқа вақт ичидида гўзал қиёфа касб эти. Раҳимжон Рихсиев бу хайрли ишларга бош-бош бўлар экан, бир йўла аҳоли томорқасига разм солди ва англадики, худудда кулпуннайчилик яхши ривожланган, деярли ҳар бир хонадонда пленка остида бу хўшхўр резавор етиштирилади. Аммо технологияси йўқ, кулпуннай нави ҳам хонаки, бир мартаба ҳосил беради, пленка ҳам борда бор. Шунда ҳокимнинг хаёлига ажойиб бир гоа келди. Одамларга замонавий иссиқхона қуриб берсак, хориждан бир йилда бир неча марта ҳосил берадиган кулпуннай навларидан келтирсак ва узок муддатли кредит ажратсак, улар шу тажрибаларини амалда қўлласа қандай бўлар экан?

Дилга тугилган ташаббус ҳаётга кўчди. Айни вақтда маҳаллага келсангиз, қуёш нурида ялтиллаб турган, атрофини яшил дарахтлар қоплаган катта майдонга кўзингиз тушади. Бу махсус дафтардаги фуқаролар учун майдонда қуриб бериб, уларни иш билан таъминлаш мақсадида ташкил этилган иссиқхоналар мажмуасидир. Туман ҳокими ташаббуси билан эрта кўкламда 10 гектарлик майдонда кулпуннай етиштиришга мўлжалланган иссиқхоналар қуриш

Тошкент шаҳрида қанча ҳажмда қурилиш ишлари бажарилди?

Жорий йилнинг январ-август ойларида Тошкент шаҳрида жами 16591,7 млрд. сўмлик қурилиш ишлари бажарилиб, ўсиш суръати ўтган йилнинг шу ойларига нисбатан 124,2 фоизни ташкил этди.

Айтиш лозимки, жорий йилнинг биринчи сентябрь ҳолатига кўра қурилиш соҳасида корхона ва ташкилотлар сони 9,2 мингтани ташкил қилди, ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 1,5 мингтага ошди. Бино ва иншоотларни қуриш бўйича қурилиш ишлари тарихида йirik қурилиш ташкилотлари томонидан бажарилган қурилиш ишлари улуши ҳам кўпайди. Ушбу фаолият турида кичик корхона ва микрофирмалар ҳиссасига тўғри келган учта йилдаги кўрсаткич нисбатан 2,3 фоизга кўпайиб, 65,5 фоизни ташкил этди. Норасмий секторнинг улуши эса 2,5 фоиз пунктга камайиб, 26,7 фоизни ташкил этди. Ғ.АБДУСАТТОРОВА, Тошкент шаҳар статистика бошқармаси "Инвестициялар ва қурилиш статистикаси" бўлими 1-муфалли мутахассиси.

Иброҳим ТОШЕВ, "Qishloq hayoti" мухбири.

Ўзбекистон шароитида айнан қишлоқ хўжалигига стратегик сектор сифатида қараш жуда катта самара бериши мумкин

(Боши 1-саҳифада)

Масалан, XX аср бошларида фирмалар ўртасида рақобат кураши кескинлашиб, жаҳон хўжалигида оғир вазият юзага келганда, дунёга машҳур иқтисодчи Й.Шумпетер муаммоли вазиятдан чиқиб ягона ва тўғри йўлини излаб топишга муваффақ бўлди. У тадбиркорликни ривожлантириш, фирмалар фаолиятида янгилик ва инновацияларни кенг жорий этиш самарали йўл эканини асослаб берди. Уша замоннинг кўзга кўринган таниқли иқтисодчилари олимнинг маҳорат билан яратган илмий қарашларини жуда катта қувонч билан қарши олган, аниқроғи, уни тўғри баҳолай олган бўлсаларда, ҳамма нарсанинг ҳаками бўлган вақт у яратган таълимот иқтисодий тараққиёт, умуман, келажак авлод учун нечоғлик аҳамиятли ва фойдали эканини кўрсатди. Ёки бошқа бир мисол. Утган асрнинг 70-чи йилларида иқтисодчи Т.Шульц ва Г.Беккерлар инсон капитали госяни ривожлантириб, унга инвестиция киритишнинг иқтисодий самарадорлиги тўғрисидаги таълимотни яратди. Айнан шу таълимотнинг амалиётга тадбиқ этилиши қишлоқ тарихий давр мубайнида Ғарб мамлакатларида ижтимоий-иқтисодий тараққиётда мисли кўрилмаган, инсон ақли бовар қилмайдиган натижаларга эришиш, иқтисодий ўсишнинг юқори суръатларини дунёга намойиш этиш, фаровон турмуш кеңириш имконини берди. Инсон капиталига устунлик бериш, уни иқтисодий юксалишнинг бош омилига айлантириш ушбу давлатларнинг иқтисодий геогномликини қўлга киритишларида асосий роль ўйнади. Жаҳон хўжалигининг бой тажрибасига таянган ҳолда бунга ўхшаш мисолларни кўплаб келтириш мумкин. Энг муҳими, бугунги кунда ушбу юғларнинг самарасидан дунё мамлакатлари баҳраманд бўлмоқда.



Қишлоқ хўжалиги - Ўзбекистонни иқтисодий юксалтиришнинг бош нуқтаси

юқоридаги масалаларни инобатга олиши талаб этилади. Боиси, қишлоқ хўжалиги соҳасида улкан соҳаюлганга эга диёримиз келажакда озиқ-овқат маҳсулотлари бўйича халқаро меҳнат тақсимида асосий ўйинчилардан бири сифатида фаол иштирок этиши, тармоқни рақобатбардosh соҳага айлантириши мумкинлиги кутилмоқда. Жаҳонда уч секторли иқтисодиёт назариясига мувофиқ, тараққиётнинг индустриал босқичидан постиндустриал босқичига ўтиш жараёни шиддат билан кечмоқда. Шундай бир пайтда аграр соҳани устун ривожлантириш тўғрисидаги тақлифлар жуда галати ва ғайритабиий туюлиши мумкин. Бироқ жаҳонда, хусусан, мамлакатимизда юзага келган ижтимоий-иқтисодий вазият ва миллий иқтисодиётнинг ривожлантириш, истиқболда уни иқтисодий юксалишнинг етакчи омилига айлантиришни тақозо этмоқда.

Аслини олганда, ушбу нуқтани назар ҳозирги кунда иқтисодиёт илими оламида ҳукмронлик қилаётган ва дунёнинг деярли барча мамлакатлари амалиётда қўлланаётган уч секторли иқтисодиёт назарияси тамойилларига зид. Замонавий назарияда постиндустриал жамиятда иқтисодиётда бандларнинг 10 фоизи қишлоқ хўжалигида, 20 фоизи саноатда, 70 фоизи хизматлар соҳасида банд бўлмоғи лозимлиги кўзда тутилади. Юртимизда эса маъмур секторларнинг улуши мос тарзда 26,2, 33,3 ҳамда 50,5 фоизни ташкил қилади. Гап шундаки, миллий хусусиятларга

эга Ўзбекистон шароитида айнан қишлоқ хўжалигига стратегик сектор сифатида қараш жуда катта самара бериши мумкин. У жаҳон андозасига қанчалик тўғри келишидан қатъи назар, биз учун иқтисодий тараққиётда эришилган пировард натижа муҳим. Шу ўринда савол туғилади, ҳўш, нима учун айнан аграр соҳани устун ривожлантириш керак? Бунга жавобни бир мисол билан бошламоқчиман. Ўзбекистон озиқ-овқат маҳсулотлари ва пахта толаси йиллик экспортнинг умумий қиймати 1,8 миллиард АҚШ долларига тенг. Айни пайтда, Вьетнам қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экспортдан бир йилда 40 миллиард доллар миқдорда даромад олади. Агар юртимиздаги ер майдони Вьетнамнинг ер майдонидан қарийб 1,5 марта кўпчилиги ҳисобга оلسак, мамлакатимизда табиат бизга саҳийлик билан тўхфа қилган қимматбаҳо ер ресурсларидан унумли фойданмаъганимиз ойдинлашади. Агар биз Яратганимиз ўзи бизга инъом этган мўътабар ва муқаддас она замин, дунёда тенги йўқ, энг мазали ва ширин, юқори сифатли, турли хил витамин ва минералларга бой, ҳар қандай элита ва суперэлита дастурхонининг беагаи бўлишига лойиқ, бетакорро ноз-неъматлари этиштиришга имкон берувчи иқлим шароитларидан ўринли фойдаланмак, ҳар бир гектар сугорилмайдиган ер майдонидан олинган маҳсулот экспортдан даромад миқдорини Вьетнам даражасига етказишимиз мумкин. Натيجанда Ўзбекистоннинг озиқ-овқат маҳсулотларини четга сотишдан миллий хазинага келиб

етиштирилган қимматбаҳо қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг талайгина қисми ҳосилни йиғиб олиш, ташиш, сақлаш ва сотиш жараёнида нест-нобуд бўлади. Албатта, бир йилда Ўзбекистонда ушбу омилнинг таъсири натижасида қанча қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари исроф бўлаётганининг аниқ ҳисобини олишнинг имкони йўқ. Бироқ, мутахассисларнинг фикрича, ривожланаётган мамлакатларда йиллик ҳосилнинг тахминан 35-40 фоизи турли сабаблар оқибатида нест-нобуд бўлади. Ўзбекистон ҳам ривожланаётган мамлакатлар тоифасига киргани ҳолда, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг катта қисми истеъмолчи ихтиёрига бориб етгунга қадар исроф бўлади ёки истеъмолга яроқсиз ҳолатга келади, деган хулосага келиш ўринли.

Ана шу муаммоларнинг ечими сифатида охириги йилларда юртимиз қишлоқ хўжалигида замонавий агротехнологиялар, хусусан, томчилатиб сугориш имкониятларидан унумли фойдаланиш, ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва ҳосилни йиғиб олиш жараёнини тегишли техника воситалари билан таъминлаш, агрохизматлари сифатини ошириш, маҳсулотларни саноат корхоналарида қайта ишлаш ва уларни истеъмолга тайёр ҳолга келтириш бўйича муҳим ва катта ислохотлар амалга оширилмоқда.

Туртинчидан, кейинги йилларда Ўзбекистонда замонавий геномика ва биоинформатика усулларида фойдаланиш асосида қишлоқ хўжалиги экинлари, доривор ва техник ўсимликлар, микроорганизмлар, ҳайвонлар етиштириш унумдорлигини кескин ошириш масалаларига жиддий эътибор қаратилмоқда. Деҳқончилик ва чорвачилик маҳсулотларининг ҳажмини ер ресурсларини кенгайтириш, янги ер майдонларини ўзлаштириш ҳисобидан кўпайтириш имкониятлари тўла ишга туширилган ҳозирги вазиятда ернинг ҳосилдорлигини ошириш қишлоқ хўжалигида яратиладиган янги ички маҳсулот ҳажмини кўпайтириш ва иқтисодий ўсишни таъминлашнинг етакчи манбаидир.

Шунингдек, замонавий ген ва ҳужайра муҳандислиги, молекуляр маркерларга асосланган геном ва виртуал селекция дастурларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш борасида қатор чора-тадбирлар амалга оширилди ва ушбу жараёнлар шиддат билан давом этмоқда. Бироқ бу йўналишда ривожлантиришда шомашошарлик ярамайди. Аниқ натижаларга эришиш учун илм-фанга асосланиш, узокни кўра билиш, "Етти ўлчаб, бир кесмоқ" лозим.

Мурод МУҲАММЕДОВ, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, иқтисодиёт фанлари доктори.



Томчилатиб сугоринг, тонналаб ҳосил олинг!

(Боши 1-саҳифада)

Зикр этилганидек, фермер хўжалигига янгиликни жорий этганлиги учун 76 миллион 140 минг сўм дотация ажратилди ва кредитни қоплашга йўналтирилди. Ҳисоб-китоб бўйича 2022 йилда яна 17,8 гектар ерда томчилатиб сугориш жорий этилади. Сўнгра эса галлачиликда ёмғирлатиб сугориш бўйича янги технология қўлланилади. Айни галлачилик бўйича маъмур технологиянинг афзалликлари янада бисёр. Далага уруғ сончилигини сўн то ҳосилни йиғиштириб олгунга қадар техника киритилмайди. Бегона ўтларга қарши гербицид сепиш, касаллик ҳамда зараркундаларга қарши курашда инсон омилига эътиб қўлмайди. Яъни, барча кимёвий моддалар сув орқали экинга берилади.

Достонбек Аҳмедов айни вақтда туман фермер, деҳқон хўжалиқлари ва ер эгалари кенгаши раиси вазифасида фаолият кўрсатиб, ҳамкасбларига томчилатиб сугориш имкониятлари кенглиги ва арзон ҳамда мўл ҳосил олиш кафолатлари мавжудлигини тарғиб қилишда бош-қош бўлмоқда. Бу туманда 1 минг 394 гектар гўза майдонида томчилатиб сугориш технологияси қўлланилди. Қурилиш-монтаж ишларининг салмоқли қисми "Жалақудук маҳсул сув пулрат" М-ҶЖ мамоси томонидан амалга оширилган бўлиб, келгуси йил учун буюртмалар мuddатидан олдин қабул қилинмоқда.

Корхона раҳбари Муроджон Асронов билан "Ёрқишлоқ" массивидаги "Обод водий салтанати" фермер хўжалигида бўлганлимизда унинг раҳбари Қобилжон Қўзиёвнинг қувончига шерик бўлди. 12 гектар майдонда қўлланилган илгор технология биринчи йилда фермерни шу қадар сийлабдики, ҳосилдорлик гектарига 50 центнердан ортибди. Барчаси аъло навага қабул қилинганлиги эса даромадини янада кўтартишга қодир бўлибди.

Маъмур хўжалигида 36 гектар гўза майдони бор. Қобилжон Қўзиёв даромад чўгини ҳисоблаб, кредит олмасдан қоплан 24 гектарда ҳам томчилатиб сугориш технологиясини қуришни Муроджон Асроновдан сўрамоқда. Фермернинг мўлжални бу қадар баланд олишининг сирини бор экан. Бу ерда монтаж қилинган технология даланнинг қоқ ўртасида жойлашган бўлиб, фермер фақат шланглар учун харажат қилади, холос. Ҳовуз, насос, филтър каби асосий технология қуввати 36 гектар ерга сув етказиб беришга етди ортади.

Қобилжон Қўзиёв билан дала шароитида юрб йул-йўлаккай сўхбатларимиз давомида яна бир ечим зарур бўлган ҳолатга эътибор қаратдик. Томчилатиб сугориш жорий этилган бир қатор мамлакатларда айни пахта ҳосилдорлиги 70-80 центнердан кам эмас. Янгиликни жорий этишда агроном иштироки зарур эканлиги ва хоридан тажрибали мутахассисларни жалб этиш зарурат эканлиги ойдинлашди. Бизнинг агрономларимиз айнан бу технология бўйича тасаввурга эга эмас. Гўзага шланглар орқали сув етказиб бериш асосида ўқитлар ҳам аралашма тарзда етказиб берилади. Даладан даланнинг фарқи бор. Қаерга кўпроқ ёки озроқ ўғит берилиши, унинг меъёри каби жиҳатлар бор.

Биз Жалақудудка яна бир қатор фермер хўжалиқларида бўлганлимизда ҳам айнан юқоридаги саволлар ўртага чиқди. Демак, киш мавсумида хоридлик мутахассислар иштирокида ўқув машгулотлари ташкил этилиши фақат янги технология имкониятларини тезроқ юзага чиқаришга хизмат қилади.

Қобилжон АСҚАРОВ, "Qishloq hayoti" муҳбири.

Эълонлар

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI BO'SH (VAKANT) PROFESSOR-O'QITUVCHI LAVOZIMLARIGA MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA TANLOV E'LON QILADI

KAFEDRA MUDIRLARI:

- 1. Dehqonchilik va melioratsiya kafedrası; 2. O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrası; 3. Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi kafedrası; 4. O'simliklarni himoya qilish kafedrası; 5. O'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantini kafedrası; 6. Sabzavotchilik, polizchilik, kartoshkachilik va issiqxona xo'jaligi kafedrası; 7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash kafedrası; 8. Agrobiotexnologiya kafedrası; 9. Ipakchilik va tutchilik kafedrası; 10. Umumiy zootexniya va veterinariya kafedrası; 11. Jismoniy tarbiya va sport kafedrası; 12. Manzarali bog'dorchilik va ko'klamzorlashtirish kafedrası; 13. Agrobiznes va turizm kafedrası.

PROFESSORLAR:

- 1. Dehqonchilik va melioratsiya kafedrası (0,25); 2. O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrası; 3. Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi kafedrası (seleksiya); 4. Agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrası; 5. O'simliklarni himoya qilish kafedrası; 6. Qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi kafedrası; 7. O'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantini kafedrası; 8. Mevachilik va uzumchilik kafedrası (0,75); 9. Sabzavotchilik, polizchilik, kartoshkachilik va issiqxona xo'jaligi kafedrası; 10. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash kafedrası (0,25); 11. Agrobiotexnologiya kafedrası; 12. Baliqchilik va asalarichilik kafedrası; 13. Manzarali bog'dorchilik va ko'klamzorlashtirish kafedrası; 14. Agrobiznes va turizm kafedrası; 15. Agroiqtisodiyot kafedrası; 16. Buxgaleriya hisobi, tahlil va audit kafedrası.

DOTSENTLAR:

- 1. Dehqonchilik va melioratsiya kafedrası; 2. O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrası; 3. Qishloq xo'jaligi

- ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi kafedrası (seleksiya); 4. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish kafedrası (0,75); 5. Agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrası; 6. O'simliklarni himoya qilish kafedrası; 7. O'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantini kafedrası; 8. Mevachilik va uzumchilik kafedrası; 9. Sabzavotchilik, polizchilik, kartoshkachilik va issiqxona xo'jaligi kafedrası; 10. Ekologiya va botanika kafedrası (ekologiya); 11. Ekologiya va botanika kafedrası (biokimyo); 12. Fizika va kimyo kafedrası (fizika); 13. Fizika va kimyo kafedrası (kimyo); 14. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash kafedrası; 15. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash kafedrası; 16. Agrobiotexnologiya kafedrası; 17. Ipakchilik va tutchilik kafedrası; 18. Baliqchilik va asalarichilik kafedrası; 19. O'rmonchilik kafedrası; 20. Manzarali bog'dorchilik va ko'klamzorlashtirish kafedrası; 21. Dorivor o'simliklar va ko'klamzorlashtirish kafedrası; 22. Gumanitar fanlar kafedrası (falsafa, 0,5); 23. Agrobiznes va turizm kafedrası; 24. Agroiqtisodiyot kafedrası; 25. Axborot texnologiyalari va matematika kafedrası.

KATTA O'QITUVCHILAR:

- 1. Dehqonchilik va melioratsiya kafedrası; 2. Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi kafedrası (seleksiya); 3. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish kafedrası; 4. Agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrası; 5. O'simliklarni himoya qilish kafedrası; 6. Qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi kafedrası (2); 7. Mevachilik va uzumchilik kafedrası; 8. Ekologiya va botanika kafedrası (ekologiya); 9. Fizika va kimyo kafedrası (kimyo); 10. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash kafedrası; 11. Agrobiotexnologiya kafedrası; 12. Tillar kafedrası (ingliz tili);

- 13. Tillar kafedrası (nemis tili); 14. Ipakchilik va tutchilik kafedrası; 15. Baliqchilik va asalarichilik kafedrası; 16. Umumiy zootexniya va veterinariya kafedrası; 17. Jismoniy tarbiya va sport kafedrası; 18. O'rmonchilik kafedrası; 19. Manzarali bog'dorchilik va ko'klamzorlashtirish kafedrası; 20. Dorivor o'simliklar kafedrası; 21. Gumanitar fanlar kafedrası (falsafa); 22. Agrobiznes va turizm kafedrası; 23. Agroiqtisodiyot kafedrası (marketing); 24. Agroiqtisodiyot kafedrası (iqtisodchi); 25. Buxgaleriya hisobi, tahlil va audit kafedrası; 26. Axborot texnologiyalari va matematika kafedrası.

ASSISTENTLAR:

- 1. Dehqonchilik va melioratsiya kafedrası (0,25); 2. O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrası; 3. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish kafedrası (0,5); 4. Agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrası (0,75); 5. O'simliklarni himoya qilish kafedrası; 6. Qishloq xo'jaligi fitopatologiyasi kafedrası; 7. O'simliklar va qishloq xo'jalik mahsulotlari karantini kafedrası; 8. Mevachilik va uzumchilik kafedrası (0,75); 9. Sabzavotchilik, polizchilik, kartoshkachilik va issiqxona xo'jaligi kafedrası (0,5); 10. Ekologiya va botanika kafedrası (fiziologiya); 11. Ekologiya va botanika kafedrası (ekologiya); 12. Fizika va kimyo kafedrası (kimyo 0,75); 13. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash kafedrası; 14. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini standartlashtirish va sertifikatlash kafedrası; 15. Agrobiotexnologiya kafedrası; 16. Ipakchilik va tutchilik kafedrası; 17. Baliqchilik va asalarichilik kafedrası; 18. Umumiy zootexniya va veterinariya kafedrası (veterinariya 0,5); 19. O'rmonchilik kafedrası; 20. Dorivor o'simliklar kafedrası; 21. Agrobiznes va turizm kafedrası; 22. Agroiqtisodiyot kafedrası;

- 23. Buxgaleriya hisobi, tahlil va audit kafedrası.

O'QITUVCHILAR:

- 1. O'zbek tili va adabiyoti kafedrası (o'zbek tili); 2. O'zbek tili va adabiyoti kafedrası (rus tili); 3. Tillar kafedrası (ingliz tili); 4. Tillar kafedrası (nemis tili); 5. Jismoniy tarbiya va sport kafedrası (jismoniy tarbiya 0,75).

Tanlov uchun hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Talab qilinadigan hujjatlar: Rektor nomiga ariza; so'rovnoma; tarjimai hol; tegishli oliy ma'lumoti haqidagi diplom, ilmiy daraja, ilmiy unvon; ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda, ularni tasdiqlovchi diplomlar, attestatlar nusxalari; malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalar nusxalari va ilmiy ishlar ro'yxati.

Tanlovga tushgan barcha hujjatlar oldindan kafedra majlisida ko'rib chiqiladi. Ilgari kafedrada ishlamagan shaxslarning hujjatlarini ko'rib chiqishdan oldin, ular tomonidan sinov ma'ruzalari (universitet professor-o'qituvchilari uchun - ochiq mashg'ulotlar) o'tkaziladi. Sinov ma'ruzalari va ochiq mashg'ulotlar mavzulari kafedra predmetlari bo'yicha o'quv dasturi talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Tanlov qatnashchilarini test sinovlaridan o'tkazishga yo'l qo'yiladi.

Ilgari o'zi egallab kelgan lavozim uchun tanlovda qatnashuvchi shaxslar kafedra majlisida tanlovdan oldingi davrdagi ilmiy-pedagogik, metodik, tarbiyaviy va boshqa ishlari to'g'risida hisobot beradi.

Hujjatlar quyidagi manzilga topshiriladi: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasi, Universitet ko'chasi 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti. Telefon: (71) 260-48-00.

Тил – миллийлик асоси

Миллатларни бир-биридан ажратиб турувчи ва шу билан бирга бир-бирига яқинлаштирадиган бу тил. Инсон ўз тилини мукаммал билиши, уни доим улуғлаши ва шу билан бирга бошқа миллатларнинг тилига ҳам ҳурмат билан қараш и юксак маданиятдан далолат беради. Шундагина тилнинг, миллатнинг қадри ва обрўи, нуфузи ошади. Тилнинг шаклланиши тарихини, унинг меъёрий ривожланиши жараёнини миллат тарихидан айри ҳолда ўрганиб бўлмайди.



Гулнора ИСОҚОВА,
Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг
Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини
ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун
ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш
масалалари бўйича маслаҳатчиси.

Ўзбек тилининг ватанимизда давлат тили сифатида амал қилинишининг ҳуқуқий асослари қонунан белгилаб қўйилганига ҳам 30 йилдан ошди. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат тили ҳақида"ги Қонуни уч тамойилга: умумийлик, мажбурийлик ва ҳуқуқий кафолатга асосланганлиги барчамизни кенг имкон ва мажбуриятларга ундайди.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги мақоми ва нуфузини ошириш борасида ҳар бир соҳада ниҳоятда муҳим ўзгаришлар, янгиланишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги тизимида ҳам ушбу йўналишда жадал ислохотлар амалга қўйилди.

Вазирлик тизимида ҳужжат алмашинуви давлат тилида амалга оширилмоқда. 2020 йилдан бундан ташқари (расмий бланклар) лотин ёзувида асосланган ўзбек алифбосига ўтказилган. Вазирлик ва унинг тасарруфидоги бино пешлавларлари, оммавий тарғибот воситалари, эълон, реклама ва кўргазмалари бошқа ахборот матнлари имло хатолиқларини юз бермаслиги алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ходимларнинг лотин алифбосига асосланган давлат тилида иш юритиш борасида билим ва кўникмаларини ошириш мақсадида Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ҳузурида ташкил этилган Давлат тилида иш юритиш асосларини ўқитиш ва малака ошириш маркази ва унинг ҳудудий филиалларида қисқа ўқув курсларида ўқитувчи ва ишчи кадрларни тайёрлаш ишлари ташкил қилинган. Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Маънавий-маърифий ва давлат тилини ривожлантириш департаменти томонидан "Давлат тилида иш юритиш" китоблари (лотин ва кирилл алифбосида), "Ўзбек тилининг изоҳли луғати" (5 томдан

иборат тўплам), турли соҳаларга оид изоҳли луғатлардан иборат адабиётларнинг тақдим этилганлиги ходимларнинг билимини оширишга хизмат қилмоқда.

2020 йилда Вазирлар Маҳкамасининг қарорига мувофиқ вазирлик, идора ва ташкилотларда раҳбарнинг Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш масалалари бўйича маслаҳатчи лавозими жорий этилган. Республикамизда "Давлат тили тўғрисида"ги Қонун бузилиши ҳолатларини аниқлаш, уни бартараф этиш, муносабат билдириш борасида вазирлик, идора ва барча ташкилотлар ўртасида ҳамкорлик мустаҳкам бўлса натижага эришиш осон бўлади. Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирининг Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини

Дунёдаги қадимий ва бой тиллардан бири бўлган ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзгичимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир.
Ш. МИРЗИЁЕВ

таъминлаш масалалари бўйича маслаҳатчиси сифатида фаолиятини бошлаганидан бундан ҳудудларга қилган хизмат сафарим доирасида албатта ўша вилоят ҳокимининг соҳага масъул маслаҳатчиси билан ҳамкорликда тизимли ишларни амалга оширишни режалаштириб оламиз. Сурхондарё, Қашқадарё, Бухоро, Навоий ва Самарқанд вилоятларида мана шундай ҳамкорлик йўлга қўйилган.

муаммоларига қизиқувчилар учун фойдали бўлади.

Изоҳли луғатнинг онлайн версияси лотин ва кирилл алифболарида вазирликнинг <https://mehnat.uz/uz> расмий сайтыга жойлаштирилди.

Мамлакатимизда 21-октябрь – Ўзбек тили байрами куни сифатида кенг нишонлини арафасида турибди. "Меҳнат ва бандлик соҳасига оид атамалар изоҳли луғати"нинг китоб сифатида нашрдан чиқиши байрамга муносиб совға бўлади деган умиддамыз.

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Маънавият ва давлат тилини ривожлантириш департаменти ташаббуси билан эълон қилинган "Қадринг балан бўлсин, она тилим!" шiori остидаги ҳештегга нафақат тизим ходимлари балки, ватандан ташқарида ишлаётган меҳнат мигрантларининг фаол иштирок этишлари учун Ташқи меҳнат миграция агентлиги томонидан ҳам тарғибот лойиҳалари амалга оширилмоқда.

Эро, ўзбек тилининг халқаро миқдосдаги обрў-эътиборини юксалтириш, уни миллий ва умумлоқлар раҳбарлари, кадрлар хизмати, меҳнат органлари ходимлари, тadbirkorлар, профессор-ўқитувчилар, иқтисодий олий таълим муассасаларининг докторант, магистрант ва талабалари, шунингдек, меҳнат бозори



Yangi O'zbekistonning ISTE'DODLI YOSHLARI

Ўзбекистон Республикаси Олий ва о'рта maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi, O'zbekiston Respublikasi Iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash Ulug'bek jamg'armasi hamkorligida nashr etilgan "Yangi O'zbekistonning iste'dodli yoshlari" kitobini mutolaa qilar ekanman, qo'llanmaning mazmunan boy, tadqiqotlarning yangicha izlanish, yangicha metodlar bilan yozilganligiga guvoh bo'ldim.

Kitobda bugungi global mavzular haqida fikrlar yuritilib, mavjud muammolar hamda ularning yechimlari aniq va tiniq bayon etilgan. Menda kitobning uchinchi to'plamida keltirilgan Nafisa Gilmanovaning ilmiy tadqiqoti ayniqsa katta qiziqish uyg'otdi. Chunki Temuriylar davriga qiziqishim ushbu maqolaga e'tiborimni tortdi. Ushbu ilmiy ishda Amir Temur davridagi mamlakatning tuzilishi, undagi ko'rinish, me'morchilik an'analari hamda san'atning jivojlanishiga ilmiy tomondan yondashgan. Bundan tashqari qadimiy va boy tarixga ega Shahrisabzning o'sha davrdagi yodgorliklari, qo'lyozmalar haqida ham so'z boradi. Shahrisabzning Buyuk Ipak yo'li bilan o'zaro tarixiy bog'liqligi hamda Temuriylar davlatining boshqa shaharlar bilan uzviy raqobatdoshligiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, kitobda Uzunlik aholi punktingrafik tasvir hamda Sangirtepa yodgorligining badiiy-grafik qayta tuzilish tasvirlari keltirilib ular haqida tarixiy ma'lumotlar bayon qilingan. Bu esa o'z navbatida Qashqadaryoning bir necha nazariy va tarixiy ko'lamini yanada boyitishga zamin yaratadi. Shuningdek, kitobni mutolaa qilishim davomida tibbiyotga oid ilmiy tadqiqotga ham ko'zim tushdi va bundan juda xursand bo'ldim. Sababi men ham tibbiyot sohasida tahsil olaman va bu men uchun yana bir yangi tibbiy bilimga ega bo'lishimga sabab bo'ldi.

Ushbu maqola Shahnoza Yusupova qalamiga mansub bo'lib, unda odam papilloma virusi haqida so'z boradi, davolashning yangi texnologiyalar asosida innovatsion metodlarini ko'llash, ya'ni lazer usullarining ishlatilishi hamda bosqichlari va shu kabi yuqumli infeksiyalarning yuqish holatlari va profilaktikalari haqida asosiy tadqiqot ishlari batafsil keltirilgan. Albatta bu boradagi ilmiy tadqiqot uchun keng ko'lami izlanish talab etiladi. Ushbu ilmiy izlanishda 18-40 yoshdagi qiziq besh nafar ayol qatnashgan. Terapiya tadqiqotlarida bemorlarning 19 nafarida Lazer eCO2 qurilmasi yordamida, 10 nafarida esa Healt II yordamida fotodinamik davolash o'tkazilgan hamda qolgan 26 bemor elektrokogulyatsiya qilinganligini ko'rish mumkin. Ushbu tadqiqot ishi ham albatta, yurtimizda tibbiyot takomillashayotganining asosiy dalili sifatida namoyon bo'ladi. Muxtasar aytganda, yoshlarning ilmiy maqolalari chop etilgan ushbu kitob har bir kitobxon uchun yangicha bilimlar maktabini o'tashi barobarida yoshlarni Vatanimizga qaratib bo'lib, uning yanada rivojlanish uchun bor bilim va salohiyatini safarbar etishga undashi bilan ham ahamiyatlidir.

Farruxjon ASHURBOYEV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi talabasi.



Kitob yaxshilik va ezgulikka undaydi

Bilamizki, kitob beminat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbaidir. Insonlarning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili ham bu kitob o'qishdir. Ayniqsa, yoshlar hayotida kitobning alohida o'rini bor. Chunki yaxshi kitob insonda vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik va ezgulikka undaydi.

Tarixdan ma'lumki, davlat hukmdorlarining saroylarida kutubxonalar tashkil etishga alohida e'tibor qaratib kelingan. Misol uchun Abu Ali Ibn Sino somoniy hukmdor Nuh Ibn Mansurni davolab saroy kutubxonasidan foydalanishni so'raydi va buyuk tabib bo'lishida ushbu kutubxonaning o'rini beqiyos edi. Alisher Navoiy bobimiz o'z davrida, turkiy tilda ajoyib asarlar qoldirdi. Bu asarlar kitob holatiga keltirilib, insonlarga ulkan ma'naviy xazina bo'lib qoldi. Avvalo Alisher Navoiyning buyuk mutafakkir sifatida shakllanishida yoshligidan kitob o'qishga mehri muhim ahamiyat kasb etdi. Yapon xalq maqolidagi kitob odamlarning yo'lini yoritib turuvch mayuqdir, degan hikmat bugun yapon

mo'jizasi sodir bo'lishiga olib keldi. Toshkent shahar arxiv ishi hududiy boshqarmasi va uning qoshidagi Toshkent shahar markaziy davlat arxivida ham kutubxonalar tashkil etilgan bo'lib, muassasada mehnat qilib kelayotgan xodimlarning mutolaa zavqini olishlari uchu ular xodimlarning ish faoliyatida yaxshi natijalarga erishishda alohida o'rin tutadi. Muassasa kutubxonasida kompyuter texnikalari mavjud bo'lib, internet tarmog'iga ulangan.

G'ani JO'RAYEV,
Toshkent shahar markaziy davlat arxiv i yetakchi arxivchisi.

Эълон

Тошкент вилояти Ангрэн шаҳри Халқ таълими бўлимига қарашли 45-сонли умумтаълим мактаби томонидан 2020 йилда Абдурахимова Феруза Ахлиддин қизи номига берилган UM № 0608748 аттестат йўқолганлиги сабабли Бекор қилинади.

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ

Имтиёзли пенсия қандай расмийлаштирилади?

Тегишли ҳужжатларга мувофиқ фуқароларнинг айрим тоифалари имтиёзли шартларда пенсия олиш ҳуқуқига эга бўладилар. Хуш, имтиёзли пенсия қандай расмийлаштирилади?

Бунда иш ҳақини гувоҳлар кўрсатмаси асосида аниқлашга йўл қўйилмайди. Лавозим маошлари штат жадвалидан кўчирмалар ва жамоат ташкилотларининг аъзолик билетлари ҳақиқий иш ҳақини тасдиқлайдиган ҳужжат ўрнини боса олмайди. Иш ҳақи тўғрисида архив маълумотлари мавжуд бўлмаганда иш ҳақи миқдорини аниқлаш 2005 йилдан кейинги давр учун жамғарилиб бориладиган

пенсия тизимига мажбурий бадаллар тўғрисидаги маълумотлар, 2016 йилдан кейинги давр учун бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига ўтказилган сугурта бадалларини яқка тартибда ҳисобга олишининг марказлаштирилган электрон реестри маълумотлари, 2019 йилдан кейинги давр учун фуқароларнинг иш ҳақининг яқка тартибдаги ҳисобини юритишнинг марказлаштирилган электрон

реестри маълумотларидан келиб чиқиб амалга оширилади.

Иш ҳақи тўғрисидаги маълумотлар қисман мавжуд бўлмаган ҳолларда мавжуд бўлмаган даврлар учун иш ҳақини аниқлаш учун минтақавий коэффицент ҳисобга олинмасдан, қонун ҳужжатларида тегишли даврлар учун белгиланган энг кам ойлик иш ҳақи миқдорлари қабул қилинади.

Тўлқин ҚЎШМУРАДОВ,
Бюджетдан ташқари пенсия жамғармаси Арнасой тумани бўлими бошлиғи ўринбосари.

Эълонлар

Тошкент ш. Янги ҳаёт т. Жанубий промзона "Дарё бўйи" кўчаси 48-уй манзилида жойлашган "SNACKS PLANET" М-Ҳ (СТИР 302310450) М-ҲК 6 505 172507 сўм 47 тўйин 6 305 172507 сўм 47 тўйинга камайтирилаётганини маълум қилади. Кредиторларнинг талаби Тошкент шаҳри Яшнобод тумани Асалобод 2-мавзеси 3-уй манзили бўйича юборилиши мумкин.	"MODREN ARCH DESIGN" М-ҲК (СТИР302122012) устив жамғармаси 6 505 172507 сўм 47 тўйин 6 305 172507 сўм 47 тўйинга камайтирилаётганини маълум қилади. Кредиторларнинг талаби Тошкент шаҳри Яшнобод тумани Асалобод 2-мавзеси 3-уй манзили бўйича юборилиши мумкин.
"Маҳам-Чирчиқ" АЖ томонидан ваколатли омирорлар ташкил қилиш учун корхона ва ташкилотлар томонидан танловда қатнашиш учун тақлифлари қабул қилиш ақунланганлигини маълум қилади.	

Пахта селекцияси, уруғчилиги ва етиштириш агротехнологиялари илмий-тадқиқот институти (ПСУЕАИТИ)

2022 йил учун қуйидаги ихтисосликлар бўйича ТАЯНЧ ДОКТОРАНТУРАДА (PhD) ЎҚИШГА ҚАБУЛ ЭЪЛОН ҚИЛАДИ:

1. Умумий дехқончилик. Пахтачилик
2. Мелиорация ва сугорма дехқончилик
3. Агрокимё
4. Ўсимликшунослик

Таянч докторантурада (PhD) ўқишга талабгорлар қуйидаги ҳужжатларни тақдим этади:

- ▶ ариза;
- ▶ маълумотнома;
- ▶ меҳнат дафтарчасининг белгиланган тартибда тасдиқланган нусхаси;
- ▶ олий маълумот тўғрисидаги ҳужжат нусхаси;
- ▶ илмий ишлар рўйхати;
- ▶ илмий ишлар нусхалари;
- ▶ илмий журналларда ва нашрларда эълон қилинган илмий мақолалар сони битта, илмий ва илмий-амалий конференциялар, семинарларни илмий ишлар тўпламларига киритилган тезислар (камида 2 та) рўйхати ва уларнинг нусхалари.

2022 йил учун қуйидаги ихтисосликлар бўйича Докторантурада (DSc) ўқишга ҚАБУЛ ЭЪЛОН ҚИЛАДИ:

1. Умумий дехқончилик. Пахтачилик
2. Мелиорация ва сугорма дехқончилик
3. Селекция ва уруғчилик
4. Ўсимликшунослик

Докторантурада (DSc) ўқишга талабгорлар ҳужжатларни тақдим этади:

- ▶ ариза;
- ▶ маълумотнома;
- ▶ меҳнат дафтарчасининг белгиланган тартибда тасдиқланган нусхаси;
- ▶ олий маълумот тўғрисидаги ҳужжат нусхаси;
- ▶ илмий даража;
- ▶ тадқиқот мавзуси бўйича илмий маъруза ва фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган докторлик диссертацияси режасининг муфассал лойиҳаси;

• илмий журналларда ва нашрларда эълон қилинган илмий мақолалар сони учта, илмий ва илмий-амалий конференциялар, семинарларни илмий ишлар тўпламларига киритилган тезислар (камида 2 та) рўйхати ва уларнинг нусхалари.;

Ҳужжатлар phd.mininovation.uz сайтыга жойлаштирилади.

КИРИШ ИМТИХОНЛАРИ ҚУЙИДАГИ ФАНЛАРДАН ОЛИНАДИ:

Таянч докторантурага (PhD) танланган ихтисосик бўйича ва чет тили. Докторантурага (DSc) сўхбат натижалари асосида Ҳужжатлар 15 сентябрдан 20 октябргача қабул қилинади.

Манзил: Тошкент вилояти Қибрай тумани "Оққовқ" ҚФЙ ПСУЕАИТИ.

QISHLOQ HAYOTI

МУАССИСЛАР:
Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси комплекси тарихидаги ҳамда бошқа дахлдор вазирлик ва идоралар.

Бош муҳаррир: Чори ЛАТИПОВ

Таҳрир хайъати:

Жамшид ХҲҲАЕВ, Шавкат ХАМРОЕВ, Шуҳрат ТЕШАЕВ, Мухаммаджон ТОШБОЛТАЕВ, Ақтам ХАЙИТОВ, Ботир СУЛАЙМОНОВ, Маҳмуд ТОИР, Ҳабиб ТЕМИРОВ (бош муҳаррир ўринбосари), Раимқул СУЯРОВ (бош муҳаррир ўринбосари).

Саҳифаловчи-дизайнер: Маркс ЮСУПОВ

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2009 йил 13 февралда № 0020-рақам билан рўйхатдан ўтказилган. Ҳажми 2 босма табоқ. Офсет усулида босилди, қоғоз бичими А-2. НАШР ИНДЕКСИ – 144. Буюртма Г-1047. 1924 нусхада чоп этилди.

Манзилими: 100000, Тошкент, Матбуотчилар кўчаси, 32-уй.
Телефонлар: Қабулхона – (0-371) 236-26-50.
Факс – (0-371) 233-09-93.
Реклама ва эълонлар – (0-371) 236-26-50, (0-371) 233-28-04.
e-mail: infoqishloqhayoti@mail.ru Баҳоси келишилган нархда.

ISSN 2010-7021



Бошлага топшириш вақти: 21.00
Бошлага топширили: 18.00